BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

ABDURAIMOV OZODBEK SULTANKULOVICH

O‘ZBEKISTON FLORASIDAGI MADANIY O‘SIMLIKLARNING YOVVOYI AJDODLARI: TARQALISHI, POPULYATSIYALARI HOLATI, TABIIY RESURSLARI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘T 581.143.6:581.9(575.1):581.522.5

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)

Abduraimov Ozodbek Sultankulovich
O‘zbekiston florasidagi madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlari: tarqalishi, populyatsiyalari holati, tabiiy resurslari……..... 3

Абдураимов Озодбек Султанкулович
Дикие сородичи культурных растений во флоре Узбекистана: распространение, состояние популяций, природные ресурсы…… 27

Abduraimov Ozodbek Sultankulovich
Wild relatives of cultivated plants in the flora of Uzbekistan: distribution, population status, natural resources..... 53

E'lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 57

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

ABDURAIMOV OZODBEK SULTANKULOVICH

O‘ZBEKISTON FLORASIDAGI MADANIY O‘SIMLIKLARNING YOVVOYI AJDODLARI: TARQALISHI, POPULYATSIYALARI HOLATI, TABIIY RESURSLARI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Biologiya fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/B207 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.botany.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Shomurodov Xabibullo Fayzulloyevich** biologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Turginov Orzimat Turdimatovich** biologiya fanlari doktori
	Myrzagaliyeva Anar Bazarovna biologiya fanlari doktori, professor
	Usupbaev Adilet Kidirbekovich biologiya fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	**Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc 02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 31-oktabr kuni soat 14^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (79-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 15-oktabr kuni tarqatildi.
(2025 yil 15-oktabrdagi 18-raqamli reyestr bayonnomasi).

K.Sh. Tojibayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, b.f.d., akademik

A.V. Maxmudov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, katta ilmiy xodim

F.I. Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi o`rinbosari, b.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi kunda sayyoramizda o‘simlik genetik resurslaridan oqilona va samarali foydalanish rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror qishloq xo‘jaligini ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) hujjatlarida «barcha tabiiy boyliklar orasida barcha xalqlar va avlodlar uchun eng muhimlari bu o‘simliklarning genetik resurslaridir», deb alohida ta’kidlab o‘tilgan. Hozirgi vaqtda madaniy o‘simliklar soni taxminan 3000 turni tashkil etib, bu dunyo florasida mavjud o‘simlik turlarining taxminan 1% tashkil qiladi (Kamelin, 2005).

Dunyo miqyosida madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlaridan maqsadli foydalanish, tabiiy populyatsiyalarining barqarorligini ta’minlash va ularni muhofaza qilish choralarini ishlab chiqishga katta e’tibor qaratilmoqda. O.N.Korovina (1986) fikriga ko‘ra, O‘rta Osiyo madaniy o‘simliklarning kelib chiqish markazlaridan hisoblanadi. Uning ta’rifiga ko‘ra, madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlari (MO‘YA) tabiiy floradan kelib chiqqan. Ya’ni, ular “inson tomonidan seleksiyada yetishtirish, introduksiya qilish va yangi navlar yaratish maqsadida foydalaniladigan, evolyusion va genetik jihatdan madaniy o‘simliklarga yaqin bo‘lgan tabiiy flora turlari” deb qaraladi. Seleksiya tadqiqotlarida ayniqsa yuqori moslashuvchanlikka va turli stressli omillarga chidamli bo‘lgan o‘simlik manbalariga alohida e’tibor qaratiladi. Shu bois, tabiiy populyatsiyalarni saqlab qolish va kelajakdagi muhim ekologik muammolarni hisobga olgan holda ularni muhofaza qilish bo‘yicha yangi strategiyalarni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Insoniyatning oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji global darajada ortib borishi va iqlim o‘zgarishi ta’siri tufayli yuqori hosil beruvchi, qurg‘oqchilikka, tuproqning sho‘rlanishiga va yangi zararkunandalarga chidamli ekin navlarini yaratish zarurati paydo bo‘lmoqda. Shu munosabat bilan tabiiy flora manbalaridan, aniqrog‘i — yetishtiriladigan ekinlarning yovvoyi ajdodlaridan foydalanish orqali yangi navlarni yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu o‘rinda, madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlari populyatsiyalari holatini baholash, fitotsenozlar transformatsiyasini o‘rganish va resurs salohiyatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xavf ostidagi turlar populyatsiyalarini himoya qilishning maqbul chora-tadbirlarini ishlab chiqish, ayrim turlarning fitotsenotik moslashuvchanligini o‘rganish, ontogenetik struktura va senopopulyatsiyalar tiplarini tahlil qilish hamda senopopulyatsiyalarning vitalitet holati asosida xavf signallari bo‘lgan ko‘rsatkichlar bilan birga organizm va populyatsion belgilarni baholash asosida ularning ekologik optimumini aniqlash muhim hisoblanadi.

Hozirda respublikamizda iqlim o‘zgarishi fonida o‘simlik ob’ektlarini saqlab qolish va ulardan barqaror foydalanishga alohida e’tibor qaratildi. Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan dasturiy chora-tadbirlar asosida muayyan natijalarga, jumladan, O‘zbekistonda tarqalgan madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlarining tabiiy populyatsiyalarini baholash va ularni saqlab qolish borasida muhim natijalarga erishildi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish

bo‘yicha Harakatlar strategiyasida[1] «atrof-muhit va genofondga ta’sir etayotgan muammolarni bartaraf etish» belgilab berilgan. Bu o‘rinda, jumladan madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlari, populyatsiyalarining zamonaviy holati va ular inqiroziga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, tabiiy populyatsiyalarini saqlab qolish hamda *ex situ* sharoitida urug‘ genbanki va kolleksiyalarini yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 21 sentyabrdagi 409-son «O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2019 yildagi 484-sonli “2019-2028 yillar davrida O‘zbekiston respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori 9-bob 20-bandida madaniy o‘simliklar ko‘payishini tiklash maqsadida ularning yovvoyi ajdodlari genofondini saqlashni ta’minlash hamda madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlari urug‘lari bankini tashkil etish belgilangan bo‘lib, mazkur turdagi qaror va farmonlarning ijrosini ta’minlashga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi[2]. Madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarining (MO‘YA) tarqalishi, muhim iqtisodiy xo‘jalikdagi ahamiyati, seleksiya ishlarida keng foydalanish, populyatsiyalarining zamonaviy holati, kamyob va yo‘qolib borayotgan turlari, tabiiy resurslari, invertarizatsiyasi hamda muhofazasiga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan: Alliance Bioversity&CIAT (Italiya), Centre for Genetic Resources, The Netherlands (CGN), North American botanical garden (AQSh), University of British Columbia (Kanada), University of Birmingham (Buyuk Britaniya), Nature Conservation Sector of Egypt (Misr), Biologiya-tuproqshunoslik instituti Uzoq Sharq bo‘limi (Rossiya), Botanika va fitointroduksiya institutida (Qozog‘iston) olib borilmoqda.

Madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlari tarqalishi bo‘yicha jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: ozuqabop va muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘simliklarning xilma-xilligi aniqlangan, ekologik omillar ta’sirida o‘zgarishlari baholangan va tarqalish xaritalari ishlab chiqilgan (Alliance Bioversity&CIAT, Italiya), Centre for Genetic Resources, The Netherlands (CGN), madaniy o‘simliklarni saqlab qolish strategiyasi va muhofazasi ishlab chiqilgan (North American botanical garden, AQSh), Nature Conservation Sector of Egypt (Misr), madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlari samarali foydalanish va ularning inventarizatsiyasi amalga oshirilgan (University of British Columbia, Vancouver, Canada), seleksiya ishlarida madaniy

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

[2] Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi http://www.works.doklad.ru, http://www.km.ru, www.dissercat.com, researchgate.net, http://www.fundamental-research.ru, www.webofscience.com va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

o‘simliklar yovvoyi ajdodlaridan keng foydalanilgan hamda hosildorlik maksimal darajada oshirilgan (School of Biosciences, University of Birmingham, Birmingham, United Kingdom), Rossiyaning Uzoq Sharq hududida tarqalgan kamyob o‘simliklar jamoalari 13 ta mezonlar bo‘yicha baholangan va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan (Biologiya-tuproqshunoslik instituti Uzoq Sharq bo‘limi, Rossiya); Qozog‘istonda tarqalgan (Tyon-Shon tizmasi) madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarining ekologik monitoringi olib borilgan va ularning zamonaviy xaritalari tuzilgan (Botanika va fitointroduksiya instituti, Qozog‘iston).

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo miqyosida madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarini o‘rganish borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Turlarning tabiiy tarqalish areali va biologik xilma-xilligi M. Akhalkatsi et al. (2018), R. Redden et al. (2015), iqtisodiy va xo‘jalikdagi ahamiyati C.W. Whitney et al. (2018), H. Dempewolf et al. (2017), sistematikasi Ch. Akhter et al. (2016), genetik resurslari va genomikasi M.L. Teso et al. (2018), K.J. Vining et al. (2020) hamda ularning muhofaza choralari M. Akhalkatsi (2009), N. Maxted et al. (2020, 2024) va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Mazkur yo‘nalishda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligidagi dastlabki tadqiqotlar P.M. Jukovskiy (1971), D.D. Brejnev, O.N. Korovina (1981), O.N. Korovina (1986) tomonidan amalga oshirilgan. D.D. Brejnev, O.N. Korovina (1981) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar davomida MDH mamlakatlarida tarqalgan 600 ga yaqin madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Turlarning tabiiy tarqalish areallari S.R. Miftaxova, L.M. Abramova (2014), G.T. Sitpaeva va boshq. (2014), A.A. Imanbaeva va boshq. (2016) hamda M.A. Yesimbekov va boshq. (2015) tomonidan o‘rganilgan. Turlarni muhofaza qilish chora tadbirlari T.N. Smekalova, I.G. Chuxina (2011), Современные методы... (2011), S.R. Miftaxova (2015) tomonidan o‘rganilgan.

Respublikamizda ham madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlarini tarqalishi F.O. Xasanov va boshq. (2011), genetik resurslari Ye.A.Butkov (2011), G.M. Chernova va boshqalar (2001) tomonidan o‘rganilgan. So‘nggi yillarda A.A. Ajiev (2022, 2023) tomonidan Qoraqalpog‘iston va Xorazmda tarqalgan madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlari va ularni muhofaza qilish bo‘yicha ham tadqiqotlar amalga oshirilgan. Yuqoridagi tadqiqotlarga qaramay, O'zbekistonda MO‘YA ni kompleks tahlil qilish amalga oshirilmagan. MO‘YA o'simlik jamoalarining tarqalishi, dinamikasi, tabiiy populyatsiyalar holatini baholash, ularning resurs salohiyati va muhofaza qilish choralari bo'yicha maqsadli tadqiqotlar olib borilmagan.

Shu boisdan floramizda tarqalgan madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodalirining fitotsenozlari va ularning tabiiy populyatsiyalarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Ularning asosiy tarqalish areallari, kamyob o‘simlik jamoalarini va tabiiy resurslarini aniqlash muhim jihat bo‘lib, bu nafaqat o‘simliklarning dinamikasini yaxshiroq tushunishga, balki ulardan qishloq xo‘jaligi va boshqa ehtiyojlar uchun samarali foydalanishga imkon beradi. Ushbu populyatsiyalar uchun mavjud tahdidlarni baholash va ularni muhofaza qilish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlarni ishlab chiqish, shu jumladan muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni yaratish,

ekotizimni tiklash va noyob turlarni saqlash dasturlari, shuningdek iqlim o‘zgarishi va antropogen omillar ta’sirida ularning diapazonidagi o‘zgarishlarni kuzatish muhim hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Botanika institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Navoiy va Buxoro viloyatlari yuksak o‘simliklari kadastri” (2018-2020), O‘zbekiston - Xitoy hamkorligidagi “Assessment of the state of populations of rare and endangered plant species of deserts of Uzbekistan and creation of their living collection” (2017-2018) mavzularidagi amaliy va fundamental loyihalar va “Madaniy o‘simliklarning O‘zbekiston florasidagi alohida xo‘jalik ahamiyatiga ega yovvoyi ajdodlari populyatsiyalarining zamonaviy holatini baholash va tirik kolleksiyalarini yaratish” (2021-2024) mavzusida davlat dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda tarqalgan madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarining zamonaviy holatini baholash hamda muhofaza chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘zbekistondagi madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarini kompleks (taksonomik tarkibi, hayotiy shakllari, xo‘jalik-iqtisodiy ahamiyati, kamyob turlari, MO’YA ning florosenotiplar bo‘yicha tarqalishi, sintaksonlar strukturasidagi o‘zgarishlar, qaynoq nuqtalar) tahlil qilish;

madaniy o‘simlik yovvoyi ajdodlarining kamyob o‘simlik jamoalarini aniqlash;

kamyob turlarning ontogenetik strukturasi, vitalitet holati va senopopulyatsiyalarini yosh tiplarini baholash asosida O‘zbekistondagi MO‘YA populyatsiyasining holatini baholash;

iqtisodiy va muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ayrim turlarning tabiiy resurslarini baholash;

Toshkent Botanika bog‘i va Qizilqum cho‘l stansiyasi sharoitida MO‘YA tirik kolleksiyasini yaratish;

O‘zbekiston florasida tarqalgan madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarining ma’lumotlar bazasini (MO’YA-UZ) yaratish.

Tadqiqotning obyekti O‘zbekiston florasida tarqalgan madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti – O‘zbekistonda tarqalgan madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlari, ularning floristik tarkibi, ekologiyasi, senopopulyatsiyalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotlari davomida dala, geobotanik, fitotsenotik, populyatsion, tabiiy resurslarni aniqlash va statistik metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ilk bor O‘zbekiston florasidagi madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarining (MO‘YA) inventarizatsiya qilinib, ular 28 oila, 119 turkumga mansub 224 turdan iborat ekanligi aniqlangan;

Ilk bor MO‘YA O‘zbekiston florasining tarkibiy qismi sifatida keng ko‘lamli tahlili amalga oshirilgan;

O‘zbekiston florasidagi MO‘YA larning fitotsenotik moslashuvi aniqlangan;

β (betta) va γ (gamma) bioxilma-xillik indekslari asosida dominant MO‘YA sintakson tuzilishidagi o‘zgarishlari baholangan;

Turlar boyligi, endemizm, foydalanish darajasi tasnifi, xavf darajalari va yashash muhitining xilma-xilligi asosida MO‘YA ning tarqalish “qaynoq nuqtalari” (*hotspot*) botanik-geografik rayonlar kesimida aniqlangan;

Ilk bor floristik, fitotsenotik ahamiyati va antropogen transformatsiyalar ta’siri asosida MO‘YA ning 11 ta kamyob o‘simlik jamoalari aniqlangan;

MO‘YA 9 ta kamyob turlari ishtirokidagi 51 ta senopopulyatsiyalarining ontogenetik tuzilishi va vitalitet ko‘rsatkichlari asosida populyatsiyalarning zamonaviy holati baholangan;

Ilk bor resurs jihatdan ahamiyatli bo‘lgan turlarning biometrik ko‘rsatkichlari va ularga ta’sir qiluvchi abiotik omillar o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqliklar aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

MO‘YA 9 ta kamyob turlarini 51 ta senopopulyatsiyalarini vitalitet holati va tarqalishini aks ettiruvchi GAT xaritalari tuzilgan. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” ning navbatdagi nashri uchun MO‘YA 9 ta kamyob turlarining tarqalishi, tuzilishi, ekologiyasi va qisqarish sabablari to‘g‘risidagi yangi ma’lumotlar keltirilgan;

Muhim iqtisodiy va ho‘jalik ahamiyati yuqori: yem-xashak (*Poa bulbosa*, *Hordeum bulbosum*), dorivor (*Cichorium intybus*, *Urtica dioica, Glycyrrhiza glabra*) va ozuqabop (*Pistacia vera, Rosa canina, Berberis oblonga*, *Crataegus chlorocarpa*, *Malus domestica* (=*Malus sieversii*) turlarining tabiiy resurslari va yillik foydalanish me’yorlari aniqlangan;

Toshkent Botanika bog‘i va Qizilqum cho‘l stansiyasida ayrim madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarining tirik kolleksiyasi yaratilgan;

Dala tadqiqotlari davomida yig‘ilgan o‘simlik namunalari O‘zbekistton Milliy gerbariysi (TASH) fondini boyitish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada qo‘llanilgan zamonaviy usullar va ilmiy yondashuvlar asosida olingan natijalarning nazariy ma’lumotlarga mos kelishi, natijalarning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi (Scopus va Web of Science), olingan xulosalar va qonuniyatlarni asoslanganligi, shuningdek, dissertatsiya ishining amaliy natijalari tegishli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlanganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekistondagi madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarining keng ko‘lamli tahlili, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq holda fitotsenozlar strukturasidagi o‘zgarishlarning ochib berilganligi, floraning kamyob va yo‘qolib ketish arafasidagi turlari senopopulyatsiyalari strukturasi va vitalitet tiplarining aniqlanganligi, qaynoq nuqtalarning chuqur tahlil qilinganligi hamda kolleksiya maydonidagi turlarning o‘sish va rivojlanish bosqichlari ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarining to‘liq ro‘yxatini shakllantirilganligi, muhim iqtisodiy va xo‘jalik ahamiyatiga ega turlarining tabiiy resurslari holati baholanganligi, kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlari senopopulyatsiyalarining tarqalishi va vitalitet holatini aks ettiruvchi xaritalarining tuzilganligi, kolleksiya maydonlarining tashkil etilganligi, Qizil kitobining navbatdagi nashriga kiritilgan turlarga ocherklar tayyorlanganligi, gerbariy namunalarining fondlarga topshirilganligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, olingan natijalar MO‘YA bo‘yicha uzoq muddatli monitoring tadqiqotlarining istiqbollarini belgilash, senopopulyatsiyalarni muhofaza qilish choralarini ishlab chiqish, tirik kolleksiyalarni tashkil etish hamda ulardan iqtisodiyotning turli sohalarida foydalanish imkoniyatlarini belgilashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston florasida tarqalgan madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlarini tadqiq qilish asosida:

Madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlari yem-xashak o‘simliklarining tabiiy resurslari va ularning monitoringini yuritish bo‘yicha olingan natijalar ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo‘mitasining viloyat boshqarmalariga joriy etilgan va ularning amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo‘mitasining 2024 yil 29 avgustdagi 3-548-sonli ma’lumotnomasi). Natijalar, yaylov hududidagi muhim yem-xashak xususiyatiga ega bo‘lgan turlar resurslarining holatini baholash, doimiy monitoringini olib borish hamda ulardan foydalanish imkonini bergan.

Madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarining O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” ga kiritilgan 15 turning tarqalishi xaritalari, populyatsiyalarining zamonaviy holati hamda ularga ta’sir etayotgan omillar bo‘yicha olingan natijalar tabiatni muhofaza qilish boshqarmalari faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024 yil 29 avgustdagi 03-03/3-4130-son ma’lumotnomasi). Natijalar kamyob va yo‘qolib borayotgan turlarni muhofaza qilish hamda ularning davlat kadastrini yuritish imkonini bergan.

Muallif tomonidan yig‘ilgan 200 ga yaqin turning 350 tadan ortiq gerbariy namunalari O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) fondiga topshirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024 yil 6 sentyabrdagi 4/1255-1969-son ma’lumotnomasi). Natijalar, O‘zbekiston florasida tarqalgan muhim xo‘jalik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan turlarning yangi gerbariy namunalari TASH fondining O‘rta Osiyo bo‘limi kolleksiyasini sezilarli darajada boyitgan hamda O‘zbekiston florasi haqidagi axborot-tahlil tizimini kengaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari 32 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 93 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 47 ta maqola, jumladan, 24 ta respublika va 23 tasi

xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Bundan tashqari, tadqiqot ishining natijalari 1 ta metodik tavsiyanoma va 3 ta monografiyada o‘z aksini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, yetti bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 188 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha respublika va xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti hamda predmeti keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi to‘g‘risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlari tushunchasi va uni o‘rganish”** deb nomlangan birinchi bobida, bu yo‘nalishda xorijda va O‘rta Osiyoda olib borilgan tadqiqotlarning tahlili keltirilgan. Tadqiqotlarda madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarining tarqalsihi, istiqbolli turlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha mavjud ma’lumotlar tahlil qilingan. O‘zbekiston florasida tarqalgan madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarining biologiк xilma-xilligini muhofaza qilish hamda respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qaratilgan tadqiqotning indicator ko‘rsatkichlari keltirilgan. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarilishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarini keng ko‘lamda o‘rganish va samarali foydalanish masalalari XX asrning 20-yillari oxirida N.I. Vavilov tomonidan ilgari surilgan. U madaniy floraning rivojlanishidagi 8 ta tarixiy-geografik o‘choqlarini ajratgan. Ular qatorida O‘rta Osiyo markazi ham keltirilgan bo‘lib, uning tarkibidagi O‘zbekistonning bioxilma-xilligi, madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlari genofondini saqlashda muhim o‘rin egallaydi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot hududi. Tadqiqot ob'ekti va metodlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida, tadqiqot olib borilgan hududlar K.Sh.Tojibayev va boshqalar (2016) tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy botanik-geografik klassifikasiyasi asosida batafsil tasniflangan.

Tadqiqot obyekti sifatida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati jihatdan zamonaviy qishloq xo‘jaligi o‘simliklarining genetik potensialini belgilab beruvchi, yo‘qolib ketish xavfi ostidagi va areali qisqaroytgan 224 ta MO‘YA turlari batafsil tavsiflangan. Ushbu bobda dissertatsiya ishida qo‘llanilgan tadqiqot usullari to‘g‘risida ham batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistondagi madaniy o‘simlarning yovvoyi ajdodlarining keng ko‘lamli tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida florani keng miqyosda tahlil qilish asosida olingan natijalar keltirilgan.

Taksonomik tahlillar. Hozirgi vaqtda madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarining genetik resurslari, ularning ahamiyati, tur tarkibi, molekulyar genetik tahlillari, iqtisodiy ahamiyati, amaliyotda qo‘llanilishi hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi roli NCBI, Alliance Bioversity & CIAT (qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan 20 tur), FAO (6000 tur) kabi turli xalqaro ma’lumotlar bazalari va veb-saytlarida muntazam ravishda yangilanib turadi. NCBI GenBank da 500 dan ortiq o‘simlik turlari tavsiflangan hamda RefSeq ma’lumotlar bazasida 9177 tur keltirilgan. Bundan tashqari, FAO ning Oziq-ovqat ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi o‘simliklarning genetik resurslari bo‘yicha Jahon axborot va erta ogohlantirish tizimi (WIEWS) 90 ta mamlakat va 16 ta xalqaro/mintaqaviy markazdagi 575 dan ortiq gen banklarida saqlanayotgan 6900 dan ortiq turkumga mansub 4,9 milliondan ortiq o‘simlik namunalari haqida ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Yuqorida keltirilgan manbalar, mavjud ilmiy adabiyotlar, gerbariy ma’lumotlari hamda dala tadqiqotlari natijalari asosida O‘zbekiston florasidagi madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlarining yangilangan ro‘yxat tuzildi. Hozirgi vaqtgacha ushbu ro‘yxat tarqoq va tizimlashtirilmagan holatda edi. O‘zbekiston florasida madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlari 28 oila, 119 turkumga mansub 224 turdan iborat bo‘lib, respublika florasining 5,14 % ni tashkil etadi (Abduraimov et al., 2023).


MO‘YA turlar soni bo‘yicha quyidagi oilalar yetakchilik qiladi: Poaceae (59 tur – 26,33%), Fabaceae (30 tur – 13,39%), Amaranthaceae (20 tur – 8,92%), Rosaceae (20 tur – 8,92%), Amaryllidaceae va Asteraceae (har biri 12 tur – 5,35%), Brassicaceae (10 tur – 4,46%). Yetakchi 7 oilaning turlar tarkibi jami 163 taksonni tashkil etadi (bu esa barcha yovvoyi ajdodlar sonining 72,76 foizini tashkil etadi). Keyingi guruh, ya’ni turlar boyligiga ko‘ra (4–9 tur) quyidagi oilalarni o‘z ichiga oladi: Cannabaceae, Grossulariaceae, Liliaceae, Moraceae, Malvaceae, Apiaceae va Polygonaceae. Ushbu oilalar tarkibida jami 38 tur mavjud bo‘lib, bu MO‘YA umumiy turlar sonining 16,96 % tashkil etadi. Qolgan oilalar esa 1–2 turni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: Anacardiaceae, Ebenaceae, Juglandaceae, Lythraceae, Rhamnaceae, Urticaceae, Vitaceae, Asparagaceae, Berberidaceae, Caprifoliaceae, Elaeagnaceae, Lamiaceae, Linaceae, Nitrariaceae, Solanaceae. Umuman olganda, ushbu oilalar guruhi jami 23 turdan iborat bo‘lib, bu MO‘YA umumiy turlar sonining 10,26 % tashkil etadi. Madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlari turkum kesimida ham bir tekisda taqsimlanmagan. O‘zbekistondagi MO‘YA turkum spektrida 4 va undan ortiq turga ega bo‘lganlari quyidagilar: *Allium* (12 tur), *Vicia* (10), *Prunus* (8), *Lathyrus* (7), *Poa* (7), *Aegilops* (5), *Hordeum* (5), *Rumex*, *Ribes*, *Crataegus*, *Tulipa*, *Medicago* (har biri 4 turdan).

Hayotiy shakllar tahlili. O‘simliklarning hayotiy shakllari ularning muhit sharoitlariga moslashuvini aks ettiradi va o‘xshash moslanish tuzilmalariga ega o‘simliklar guruhlarini tavsiflovchi ekologik tasniflash birliklari hisoblanadi. Raunkier (1934) tasnifiga ko‘ra, O‘zbekiston florasida MO‘YA (madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlari) eng katta qismini o‘t o‘simliklar (gemikriptofitlar va terofitlar) tashkil qilib, umumiy turlar sonining 69,64% ini (156 tur) tashkil etadi. Gemikriptofitlarning tog‘li O‘rta Osiyo florasida ustunlik

qilishi ushbu provinsiyaning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir (Kamelin, 1973). Terofitlar esa genetik tadqiqotlar va yangi navlarni yaratishda muhim rol o‘ynab, MO‘YA sifatida foydalanishda tez va samarali natijalar beradi. Jumladan, jahon amaliyotida Amaranthaceae, Fabaceae va Poaceae oilalarining bir yillik vakillari yuqori sifatli yem-xashak va dukkakli ekinlarning seleksiyasida keng qo‘llaniladi.

Fanerofitlar umumiy turlarning 19,19 foizini (43 ta) tashkil qilib, ularning asosiy qismini Rosaceae va Grossulariaceae oilasi vakillari tashkil etadi (dengiz sathidan 800–2300 metr balandliklarda tarqalgan). MO‘YA tarkibidagi kriptofitlar *Allium* L. va *Tulipa* L. turkumlariga mansub bo‘lib, asosan O‘zbekistonning eng nam hududlarida tarqalgan. Xamefitlar esa atigi 8 tur (3,57%) bilan ishtirok etadi. Mazkur turlarning ko‘p qismi relikt, paleoendem turlarga to‘g‘ri kelib, asosan oxaktoshli, olajinsli yonbag‘irliklarda keng tarqalgan (1-rasm).

Turlarning xo‘jalikdagi ahamiyati. O‘zbekiston florasida tarqalgan MO‘YA iqtisodiy va xo‘jalik ahamiyatiga ko‘ra 10 ta guruhga bo‘lingan. Unga ko‘ra, O‘zbekiston florasida MO‘YA orasida asosan yem-xashak (64,28 %), dorivor (38,83 %) va oziq-ovqat (35,26 %) turlari ustunlik qilib, eng kam tarqalganlari esa vitaminli o‘simliklardir (2,67 %). Bundan tashqari, MO‘YA ning bir qismi yaxshi asal-shirali (31,69 %), manzarali (28,12 %) va boshqa turlarni ham o‘z ichiga oladi (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekiston florasidagi MO‘YA ning hayotiy shakllar (A) va xo‘jalikdagi ahamiyati (B) bo‘yicha tahlili

O‘zbekiston “Qizil kitobi”ga kiritlgan kamyob turlar. MO‘YA 15 turi O‘zbekistonning Qizil kitobiga kiritilgan va yo‘qolib ketish xavfi ostida hisoblanadi. Tadqiqotlarimiz davomida olingan ma'lumotlar O'zbekiston Qizil kitobi (2019) nashrida ushbu turlar populyatsiyasining holati va tarqalishini baholash bo'yicha berilgan ma'lumotlarni to'ldiradi. Ushbu turlarning barchasi IUCN mezonlari yordamida tahlil qilindi, ularning populyatsiyasiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy tahdidlar aniqlandi. Xususan, *Ribes malvifolium* Pojark. — to‘liq yo‘q bo‘lib ketish arafasida (CR), 6 tur (*Diospyros lotus* L., *Cicer grande* (Popov) Korotkova, *Tulipa fosteriana* W. Irving, *Punica granatum* L., *Ficus carica* L. va *Ziziphus jujuba* Mill.) — yo‘qolib ketish xavfi ostida (EN), va 8 tur (*Allium giganteum* Regel, *Allium praemixtum* Vved., *Allium pskemense* B. Fedtsch., *Tulipa greigii* Regel, *Tulipa kaufmanniana* Regel, *Tulipa tubergeniana*

Hoog, *Malacocarpus crithmifolius* (Retz.) Fisch. & C.A. Mey, *Vitis vinifera* L.) — zaif holatda (VU) ekanligi aniqlandi.

Florotsenotiplar bo‘yicha tahlili. O‘zbekiston o‘simliklar qoplamidagi MO‘YA ning tarqalishini tahlil qilish natijasida, ular 13 ta florotsenotiplar tarkibida uchrashi qayd etildi: shiblyak, efemeretum, antropofiton, gidrofiton, petrofiton, to‘qay, eron-turon friganoidi, eron-turon yarim savannasi, turon tekisligi yarimbutalari, yirik bargli tog‘ yarim savannasi, tekislik butalari, quyuq va siyrak o‘rmonlar. MO‘YA tarkibining eng katta qismi — 98 tur yoki umumiy sonning 43,75 % — shiblyak florotsenotipida uchraydi. Mazkur florotsenotipga xos bo‘lgan xandon pista (*Pistacia vera*), buxoro bodomi (*Prunus bucharica*) va Korolkov do‘lanasi (*Crataegus korolkowii*) kabi o‘simliklar o‘z dominantligidagi formatsiyalarni tashkil qiladi. Bu xildagi florosenotiplarning O‘rta Osiyo tog‘larida shakllanishi postpleystotsen davridagi kserotermik bosqichga to‘g‘ri keladi (1-jadval).

1 - jadval

MO‘YA turlarining florosenotiplar bo‘yicha tarqalishi

№	Florotsenotiplar	Umumiy turlar soni	%
1	**Shiblyak** (*Xerodrymion orientalemediterraneum*)	98	43,75
2	**Efemeretum** (*Ephemerocoryphion orientemediterraneum*)	63	28,12
3	**Antropofiton** (*Anthropophyton*)	30	13,39
4	**Gidrofiton** (*Hygrocoryphiopoion asiaticum*)	13	5,80
5	**Petrofiton** (*Xerolithophyton iranoturanicum*)	14	6,25
6	**To‘qay** (*Xeropotamodrymion asiaticum*)	29	12,94
7	**Eron-turon friganoidi** (*Phryganion = Xerohemithamnion iranoturanicum*)	27	12,05
8	**Eron-turon yarim savannasi** (*Xerocoryphion iranoturanicum*)	23	10,26
9	**Turon tekisligi yarim butalari** (*Eremo-phryganion turanicum*)	19	8,48
10	**Yiriko‘tli tog‘ yarimsavanna** (*Megaloxerocoryphion medioasiaticum*)	35	15,62
11	**Dasht butalari** (*Xerothamnion stepposum*)	17	7,58
12	**Quyuq o‘rmonlar** (*Therodrymion nemorale*)	20	8,92
13	**Siyrak o‘rmonlar** (*Leucodrymion holarcticum*)	24	10,71

MO‘YA tarkibida shiblyak va Eron-Turon yarim savannasi florotsenotiplarining asosiy muhit hosil qiluvchi (edifikatorlari) bo‘lgan ko‘plab o‘simliklar mavjud: *Pistacia vera, Berberis integerrima, Prunus bucharica, Crataegus pontica, Hordeum bulbosum, Poa bulbosa, Glycyrrhiza glabra* va boshqalar.

Navbatdagi o‘rinni efemeretum tipidagi turlar egallaydi. Ularning soni 63 ta bo‘lib, umumiy turlarning 28,12 % ni tashkil qiladi. Mazkur florosenotip - kserofit siyrak o‘rmonlar va yirik donli yarim savannalardan hosil bo‘lgan o‘simliklarni (*Carex pachystylis, Poa bulbosa*) birlashtiradi. O‘tmishda inson faoliyati ta’sirida shakllangan, shuningdek bir yillik boshoqli o‘simlik jamoalari (*Aegilops triucialis, Hordeum leporinum* va boshq.) hozirda yirik bargli o‘simliklar uchun yaroqsiz bo‘lgan joylarni faol tarzda egallab bormoqda. Eng kam ulushdagi turlar esa dasht

butazorlariga, gidrofitonlarga va petrofitonlarga mansub florotsenotiplarga tegishlidir. Keyingi o‘rinlarda yirik o‘tloqli tog‘ yarim savannasi florotsenotipi (15,62%), antropofiton (13,39%) va to‘qay florosenotipi (12,94%) turadi.

MO‘YA ning fitotsenotik xilma-xilligi. Bobning oltinchi bo‘limi fitotsenozlarning strukturaviy-dinamik o‘zgarishlarini biologik xilma-xillik ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilishga bag‘ishlangan. O‘zbekiston florasida uchraydigan madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlarining (MO‘YA) 224 turidan 51 turi keng tarqalgan bo‘lib, fitotsenozlar shakllanishida dominant rol o‘ynaydi. Ularning aksariyati (*Juglans regia* L., *Malus domestica* (Suckow) Borkh. (=*Malus sieversii*), *Rosa canina* L., *Berberis integerrima* Bunge, *Pistacia vera* L., *Prunus bucharica* Korsch., *Crataegus pontica* K. Koch, *Elaeagnus angustifolia* L., *Agropyron fragile* (Roth) P. Candargy, *Hordeum bulbosum* L. va boshqalar) nomdosh formatsiyalarni hosil qiladi, bu formatsiyalar 4 ta assotsiatsiyadan (*Agropyron fragile*) tortib to 18 ta assotsiatsiyagacha (*Juglans regia*, *Pistacia vera*) ni o‘z ichiga oladi. Ushbu assotsiatsiyalarning muhim qismi O‘zbekistonning muhofaza qilinadigan hududlaridan tashqarida o‘sadi va natijada turli tabiiy hamda antropogen omillar ta’siriga uchramoqda.

O‘simlik jamoalarining tabiiy va inson faoliyati ta’siridagi dinamikasini aniqlash maqsadida ularning hozirgi holati alfa (α) va beta-xilma-xillik (β) indekslari yordamida baholandi. Shunga ko‘ra, MO‘YA dominant turlari sintaksonlarining tarkibiy ko‘rsatkichlari solishtirma tahliliga asoslanib, α- va β-tur xilma-xilligi indekslari — jumladan, dominantlik indeksi (D), Simpson indeksi (1–D), Shennon indeksi (H), Margalef indeksi (DMg) va Uitteker indeksi (βW) — ikki vaqt davrida: OS (1959–1974 yillar) va MS (2020–2024 yillar) bo‘yicha solishtirildi. Tadqiqotlar davomida quyidagi turlarning dominant bo‘lgan assotsiatsiyalari o‘rganildi: *Juglans regia* (JR), *Pictacea vera* (PV), *Malus domestica* (MD), *Prunus bucharica* (PB), *Berberis oblonga* (BO), *Rosa canina* (RC), *Crataegus pontica* (CP).

Qiyosiy-statistik tahlil natijalariga ko‘ra, *RC* dan tashqari barcha daraxt-butazor vakillarida hozirgi-zamonaviy vaqtga kelib dominantlik indesining (*D*) qariyb teng barobarga qisqarganligi aniqandi. Jamoalari arid va subarid zonalarda tarqalalishga moslashgan *PV, PB* vakillarida qurg‘oqchilikka chidamli xususiyatlari borligi sababli (Sorkheh et al., 2009), ularning populyatsiyalari saqlanib qolinishi kutilgan edi. Biroq populyatsiyalarda qari generativ (g3) va senil (ss) bosqichdagi tuplar ulushining yuqori ulushi hamda mevalarning yetilmasdan yig‘ib olinishi, fitotsenozlarning tabiiy yangilanishini kamayishiga va sintaksonlardagi o‘rnini pasayishiga olib keladi. Ayniqsa, *MD* jamoalarida dominantlik indeksining yuqori-sezilarli qisqarishi (*0.19 → 0.08*), tur tarqalgan maydonlarning insonlar tomonidan o‘zlashtirilishi hamda yosh nihollardan seleksiya va payvand ishlarida foydalanilishi bilan bog‘liq.

Dominantlik indeksini pasayishi bilan bog‘liq natijalar, sintaksonlar strukturasini baravarlashishi (*1-D*) yoki polidominant xarakter kasb etganligi bilan ham tasdiqlandi. Bu holat, tabiiy daraxt-buta senozlari uchun xos bo‘lmagan xususiyat bo‘lib, respublika hududidagi MO‘YA jamoalarining aksariyatining xavotirli holatda ekanligidan dalolat beradi.

Boshqa vakillardan farqli ravishda *RC* jamoalarida dominantlik indeksining ortishini *0.59 → 0.66*) ko‘rsatdi. Bu holat *Rosa canina* ning tarixan shakllangan strategiyasi – kserofit buta sifatidagi xususiyati bilan izohlanadi. Populyatsiyalarning barqarorligi nafaqat generativ, balki vegetativ yo‘l bilan ko‘payish orqali ham ta’minlanadi. Bu esa ularning tabiiy, ham antropogen omillar ta’sirida buzilgan ekotizimlarda yashash imkonini beradi (2-jadval).

2-jadval

Dominant MO‘YA jamoalarida α-xilma-xillik indeksining o'zgarishi

Formatsiya	*D*		*1-D*		*H*		D_{Mg}	
	OS	***MS***	***OS***	***MS***	***OS***	***MS***	***OS***	***MS***
Pistacietum vera	0.36	0.20	0.79	0.84	2.01	1.83	4.86	4.33
Juglansetum regiae	0.25	0.12	0.84	0.86	2.91	2.68	7.91	7.82
Maletum domesticae	0.18	0.08	0.91	0.95	2,96	2.47	6.65	6.41
Rosaeta caninae	0.59	0.66	0.57	0.41	2.54	2.19	3.90	1.75
Berberidion oblongae	0.15	0.10	0.86	0.92	2.93	2.39	6.54	6.25
Crataegeta ponticae	0.49	0.24	0.65	0.92	2.94	2.43	5.22	3.57
Prunetum bucharicae	0.21	0.11	0.88	0.97	2.38	2.17	5.50	5.26

β-xilma-xillikni tahlil qilish (β_W) natijalari shuni ko'rsatdiki, dominantlik indeksining (D) o'sishiga qaramay, so'nggi yillarda sintakson tuzilishidagi eng katta o'zgarishlar *Rosa canina* jamoalarida (β_W = 0,30) yuz berganligini ko‘rsatdi. Bu esa, fitosenoz strukturasida ikkinchi yarus qoplamining qariyb uchdan bir qismining o‘zgarishi bilan bog‘liq (3-jadval).

3-jadval

Dominant MO‘YA jamoalarida β -xilma-xillik indeksining o'zgarishi

Formatsiya	$\sum n$	β_W		*CV*
		μ	σ	
Pistacietum vera	18	0.16	0.068	28,4
Juglansetum regiae	17	0.17	0.065	28,1
Maletum domesticae	14	0.16	0.077	30,1
Rosaeta caninae	11	**0.30**	0.055	**41,2**
Berberidion oblongae	8	0.23	0.095	35,1
Crataegeta ponticae	7	0.21	0.081	32,2
Prunetum bucharicae	6	0.17	0.107	26,3

Izoh: μ - o‘rtacha ko‘rsatkich; σ – standart og‘ish; CV – koeffisient variatsiya; *OS – 1959-1974 yy.; MS – 2020-2024 yy.*

Mazkur o‘zgarishlar nafaqat arid ekotizimlarga xos bo‘lgan turlar ulushining ortishi, balki ruderal turlar kirib kelishi bilan ham bog‘liqligi taxmin qilinmoqda. Bu esa turli antropogen omillar ta’sirida tabiiy o‘simlik qoplamining buzilganligidan dalolat beradi (*Alhagi pseudalhagi, Cynodon dactylon, Tamarix hispida, Phlomis thapsoides, Cullen drupaceum, Amaranthus viridis*). Bundan tashqari, statistik qiymatlarning kam og‘ish ko‘rsatkichi (σ < 0,060), respublikada *Rosa canina* jamoalaridagi o‘zgarishlar o‘xshash tendensiyaga moyilligidan dalolat beradi.

α-xilma-xillik natijalari β_W ko‘rsatkichining katta nisbatlarda o‘zgarishini keltirib chiqarishi kutilgan edi. Biroq, β-xilma-xillik indeksi (β_W) *Pistacietum vera*, *Juglansetum regiae*, *Maletum domesticae* va *Prunetum bucharicae* vakillari uchun respublikada mavjud ekologik sig‘im yohud o‘sish makonlari ekologik potensialining cheklanganligi bilan bog‘liq statistik natijalarni ko‘rsatdi. Xususan, ushbu turlar jamoalari vakillarida β_W ning kichik (<0.20) ammo yuqori og‘ish qiymatlari (0.060-0.107) sintaksonlarining ekologik cheklangan nishalardagina saqlanib qolganligini anglatadi. Bu esa, ayni ushbu turlar o‘sish muhitlarining fragmentatsiyasigina MO‘YA jamoalarining to‘laqonli transformatsiyasini ta’minlab beradigan asosiy ustuvor omil ekanligini bildiradi. Madaniy o'simliklarning yovvoyi ajdodlarining buta (RC, BO, PB) va daraxt (PV, JR, MD, CP) hayotiy shakllari kesimida γ-xilma-xillik indeksining qiyosiy tahlillari o'tkazildi.

γ-indeksi ko‘lami jihatidan daraxt jamoalari yuqori turlar xilma-xilligiga egaligini (*γ= 307)* ko‘rsatdi. Bu esa respublikadagi MO‘YA daraxt jamoalarining o‘zigina respublika florasining qariyb 7% turini qamrab olgan o‘ziga xos ekotizimni shakllantirganligini anglatadi. Tahlillarda asosiy urg‘u MO‘YA daraxt va buta vakillari dominantlik qiladigan jamoalaridagi differensial turlar nisbati (DSP) va o‘rtacha farqlovchi turlar soniga (AVP) qaratildi. Shuni ta’kidlash lozimki, tahlil qilingan butazor jamoalar soni daraxtzor jamoalariga nisbatan ikki baravar kam bo‘lishiga qaramay, differensial turlar ulushi (DSP = 0,366) va differensial turlar sonining o‘rtacha qiymati (AVP = 3,44) butazor jamoalarida daraxtzor jamoalariga qaraganda ancha yuqori bo‘lgan (DSP = 0,296; AVP = 1,65) (4-jadval).

4-jadval

MO‘YA buta va daraxt jamoalari kesimida γ-xilma-xillik indeksining o'zgarishi

Hayotiy shakli	MO‘YA soni	Jamoalar soni	*α*	*(β)*	*DSP*	*AVP*	*γ*
Butalar	3	25	23,4	10,4	0.366	3.44	235
Daraxtlar	4	55	31,6	9,72	0.296	1.65	307


Izoh: α-alfa xilma-xillik; β- beta xilma-xillik; γ– gamma xilma-xillik; DSP – differensial turlar ulushi; AVP – jamoalardagi o‘rtacha disserensial turlar

Olingan natijalar respublikadagi mavjud MO‘YA ning butazor jamoalarida yuqori darajada ixtisoslashgan, o‘ziga xos turlar mavjudligini, fitosenozlarning ekotopik ixtisoslashuvi hamda fitosinuzial strukturasining differensialligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston florasidagi MO‘YA qaynoq o‘sish (*hotspot*) nuqtalari. MO‘YA ning geografik tarqalishi tahlili, O‘zbekistonda 4 ta “qaynoq nuqtasi” mavjudligini ko‘rsatdi. Khoury et al. (2020) tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga ko‘ra, MO‘YA quyidagi uch guruhga bo‘linadi: a) global ahamiyatga ega bo‘lgan madaniy o‘simliklarning yaqin qarindoshlari bo‘lgan mahalliy turlar (1A); b) ushbu madaniy o‘simliklarning uzoq qarindoshlari (1B); c) madaniylashtirilgan o‘simliklar bilan yaqin qarindoshlikda bo‘lgan turlar (1C). Bizning tadqiqotlarimizga ko‘ra, eng yuqori xilma-xillik G‘arbiy Hisor (WG) hududida

qayd etilgan bo‘lib, bu yerda taxminan 150 turdagi MO‘YA aniqlangan. Keyingi o‘rinda G‘arbiy Tyon-Shon (WT) bo‘lib, bu yerda 135 dan ortiq tur mavjud. Uchinchi o‘rinda esa Nurota tizmasi (NR) bo‘lib, bu hududda 120 tur aniqlangan. Keyingi “qaynoq nuqta” lardan biri — Ustyurt platosining Sharqiy Chink hududi (EC) hisoblanadi. Bu yerda 59 turdagi MO‘YA qayd etilgan.

Bu hududda ushbu mintaqaga xos bo‘lgan quyidagi o‘simlik turlari o‘sadi: *Agropyron fragile, Artemisia terrae-albae, Nitraria sibirica, Malacocarpus crithmifolius*, shuningdek, tarqalish areali tor bo‘lgan turlar — *Medicago sativa* va *Crataegus chlocarpa* (=*C. korolkowii*) mavjud. Shu asosda qaynoq nuqtalarda quyidagi nisbatlar aniqlangan (1A–1B–1C): G‘arbiy Gissar — 79-46-25; G‘arbiy Tyon-Shon — 71-43-17; Nurota tizmasi — 55-36-19; Sharqiy Chink — 28-18-15 ta. Birinchi guruhga mansub turlar barcha qaynoq nuqtalarda ustunlik qilishi O‘rta Osiyo madaniy o‘simliklar kelib chiqish markazlaridan biri ekanini ko‘rsatadi. Ushbu guruhdagi o‘simliklar mintaqaga xos turli stresslarga chidamli yangi madaniy o‘simlik navlarini yaratishda qimmatli genlar manbai sifatida foydalanilishi mumkin (2-rasm).



А **Б**

2-rasm. Turlarning tarqalish nuqtalari (A) va qaynoq o‘choqlari (B)

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“MO‘YA kamyob o‘simlik jamoalari”** deb nomlanadi. Tadqiqot davomida O‘zbekistonda tarqalgan, dominant sifatida jamoa hosil qiluvchi butazor o‘simlik turlari ishtirokida shakllangan noyob o‘simlik jamoalariga kompleks baho berildi. Ishlab chiqilgan noyoblik mezonlari asosida tahlil qilingan 103 fitotsenozdan 11 tasi noyob jamoalar sifatida ajratib olindi. Ular tabiiy hududlarda — Ustyurt platosining Sharqiy Chink qismidan tortib G‘arbiy Tyon-Shon tog‘ tizmasi, Nurota tizmasi hamda G‘arbiy Hisor tog‘lariga qadar joylashgan. O‘simlik jamoalarining noyobligini baholashda quyidagi fitotsenotik ko‘rsatkichlardan foydalanildi: floristik ahamiyati, fitotsenotik qiymati, tarqalish darajasi, tabiiylik darajasi, maydoni va jamoaning tiklanish salohiyati (Мартыненко, 2015). Floristik ahamiyat ko‘rsatkichi — ya’ni noyob va endemik turlar soni bo‘yicha eng yuqori baholar respublikaning tog‘ va tog‘ oldi hududlarida tarqalgan kamyob o‘simlik jamoalariga berildi (xar xil o‘tli-butali-do‘lanazor jamoasi bundan mustasno). Fitotsenotik qiymati bo‘yicha esa sharqiy Ustyurt chinkidagi kamyob o‘simlik jamoalari ajratildi. Ustyurtning faqatgina chegaralangan hududlarida tarqalgan, mintaqaviy noyob va intrazonal jamoalar sifatida na’matakzor va oqchingilli-qumuzumzor jamoalari yuqori fitotsenotik

ahamiyatga ega sintaksonlar sifatida tavsiflangan (5-jadval).

5-jadval

Madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarining kamyob o‘simlik jamoalari

Assotsiatsiya/Mezonlar	F	B	S	N	D	V	C	P
Cho‘l ekosistemasi jamoalari								
Na’matakzor	6	9	8	4	4	3	34	P4
Oqchingilli-qumuzumzor	6	9	4	4	6	3	32	P3
Tog‘ va tog‘oldi ekosistemasi jamoalari								
Har xil o‘tli-butali-do‘lanazor	6	9	4	2	6	2	29	P3
Har xil o‘tli-qoraqatli-qayinzor	9	6	6	3	4	3	31	P4
Har xil o‘tli-yong‘oqzor	9	6	6	3	2	2	28	P3
Aralash-butali nokzor	9	6	4	3	4	2	28	P3
Har xil o‘tli-olmazor	9	6	4	4	4	1	28	P3
Shirachli-uzumzor	9	6	6	4	4	2	31	P4
Har xil o‘tli-anjirzor	9	6	4	4	6	3	32	P4
Har xil o‘tli-anorzor	9	6	4	4	6	2	31	P4
Anorli-aralash butazor	9	6	6	4	6	2	33	P4

Izoh: F – floristik ahamiyati, B – fitosotsiologik qiymati, S– tarqalishi, N – tabiiyligi, D – qisqargan maydonlari, V – tiklanishi, C – himoya mezoni (ball), P – himoyasini ta’minlash.

Ficus carica, *Punica granatum, Ribes janczewskii*, *Juglans regia* jamoalarida B, S, D, V ko‘rsatkichlari bo‘yicha yuqori qiymatlar kuzatildi. *Ficus carica* va *Punica granatum* To‘palang va Sangardak daryolari havzalaridagi toshli qulab tushgan joylar hamda mayda tuproqli yon bag‘irlarda o‘sadi. Yo‘llarning qurilishi, daryolardan tosh qazib olish, suv sathining pasayishi, shuningdek, yomg‘irlardan keyin bahor oylarida yuzaga keladigan kuchli sel oqimlari natijasida bu jamoalar maydoni asta-sekin qisqarib bormoqda.

Vitis vinifera (G‘arbiy Hisor) va *Pyrus korshinskyi* (G‘arbiy Tyon-Shon) jamoalarida F va N ko‘rsatkichlari bo‘yicha yuqori qiymatlar kuzatildi. Shu bilan birga, ushbu jamoalarda “Qizil kitob”ga kiritilgan turlar (*Rhus coriaria, Eremurus iae, Tulipa carinata, Tulipa greigii*, *Vitis vinifera* va boshqalar), shuningdek, kamyob turlar ham uchraydi. Yerlarning o‘zlashtirilishi, chorva mollarining boqilishi va geologik tadqiqotlar bu jamoalarning tabiiyligini (N) sezilarli darajada o‘zgartirib yuborgan. Ayniqsa, Oqsoqotasoy xududidagi *Crataegus chlorocarpa* va *Malus domestica* jamoalarida, N, D va P ko‘rsatkichlari bo‘yicha juda yuqori qiymatlar qayd etilgan.

Malus domestica, Crataegus chlorocarpa, Vitis vinifera, Ribes janczewskii, *Pyrus korshinskyi*, *Juglans regia* jamoalari aholi zich yashovchi hududlarda joylashgan bo‘lib, eng kuchli antropogen ta’sirga uchramoqda. Agar kerakli muhofaza qilish choralari ko‘rilmasa, bu jamoalarning yo‘qolishiga va biologik xilma-xillikning qayta tiklanmas darajadagi yo‘qotilishiga olib kelishi mumkin. Beqarorlikka olib keluvchi omillar qatoriga yaylovda chorva mollari boqilishi, o‘rmon yong‘inlari, mevalarni noto‘g‘ri va noqonuniy yig‘ish, hamda rekreatsion tadbirlar kiradi.

Shunday qilib, ushbu jamoalarning aksariyati yuqori darajadagi zaiflik, maydonlarining sezilarli darajada qisqarishi va kuchli antropogen ta’sir ostida

joylashuvi bilan tavsiflanadi. Qator jamoalar “Qizil kitob”ga kiritilgan turlarni o‘z ichiga oladi hamda yuqori darajadagi biologik xilma-xillik va tabiatni muhofaza qilish ustuvorligiga ega. Shu bilan birga, kamyob jamoalarning aksariyati muhofaza etiladigan xududlardan tashqarida bo‘lib, ularni hududiy tabiatni muhofaza qilish dasturlariga kiritish zarurligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning beshinchi bobi **“Kamyob turlar populyatsiyalarining holatini baholash”** deb nomlanadi. Ushbu bobda O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” ga kiritilgan (*Allium oschaninii* bundan mustasno), kamyob turlar — *Tulipa greigii, Tulipa kaufmanniana, Allium praemixtum, Allium pskemense, Allium oschaninii, Cicer grande, Vitis vinifera, Punica granatum, Ficus carica* senotik populyatsiyalarining ontogenetik strukturasi tahlil qilingan va 51 ta senopopulyatsiyalarning (SP) holati baholangan. Yosh tuzilishiga ko‘ra senopopulyatsiyalar 4 xil spektrga ajratilgan: chap tomonlama (58,82%), markazlashgan (33,33%), bimodal (5,88%) va o‘ng tomonlama (1,96%). Senopopulyatsiyalar normal holatda bo‘lib, aksariyati to‘liqsiz a’zoli. Ekologik-fitosenotik sharoiti va turning biologiyasiga qarab, areali tor bo‘lgan turlar (*Ficus carica*, *Punica granatum*) uchun o‘rtacha zichlik 0.7–0.9 ta/m² ni tashkil qilib, qolgan turlar uchun bu ko‘rsatkich 0.7–6.5 ta/m² oralig‘ida o‘zgarib turadi.

Chap tomonlama tip spektri. Mazkur xildagi spektr to‘liqsiz a’zoli bo‘lib, aksariyat hollarda qari tuplar uchramaydi. Aksariyat senopopulyatsiyalarda yosh generativ tuplar (*T. greigii, T. kaufmanniana, A. oschanini, P. granatum, Ficus carica*), ayrim hollarda esa yuvenil (*T. greigii, T. kaufmanniana*) yoki virginil (*T. greigii, T. kaufmanniana, A. oschanini, P. granatum, F. carica*) bosqichdagi tuplar ustunlik qiladi. Senopopulyatsiyalarda yosh (yuvenil) tuplar ulushining ortishi ekologik, biologik va antropogen omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ayrim geofitlar (*T. greigii, T. kaufmanniana, A. oschaninii*), ayniqsa raqobat yoki stress omillari ta’siri bo‘lmaganda, urug‘larning yuqori mahsuldorligi bilan ajralib turadi. Bu esa yuvenil tuplar sonining ortishiga olib keladi. Bu ayniqsa geofitlarga xos hisoblanadi. Senopopulyatsiyalarda virginil yoki yosh generativ tuplarning ustunligi yosh o‘simliklarning intensiv rivojlanishi va ontogenezning bu bosqichlarining nisbatan uzoq davom etishi bilan izohlanadi. *A. oschanini* turining ayrim senopopulyatsiyalarida yosh fraksiyalarning yo‘qligi bu fraksiyalarning toshqinlar paytida yuvilib ketishi yoki urug‘ orqali tiklanishning muntazam bo‘lmasligi bilan bog‘liq.

Markazlashgan tip spektri. Yuqori cho‘qqi yetilgan generativ tuplarga to‘g‘ri kelib, ularning ulushi o‘rganilgan senopopulyatsiyalarda 33,3% (*A. praemixtum*) dan 52,0–75,0% gacha (*Ficus carica, T. greigii*) o‘zgaradi. Aksariyat hollarda markazlashgantsenopopulyatsiyalarda yosh fraksiyadagi o‘simliklar aniqlanmadi. Yosh individlarning yo‘qligi asosan iqlim sharoitlari (vaqtinchalik sellarda ularning eliminatsiyasi, yoki aksincha, yog‘ingarchilikning kamligi, bahorgi sovuqlar) va yaylov bosimi (*P. granatum, F. carica*) va ayrim hollarda esa hududning fitotsenotik sharoitlari bilan izohlanadi. *Tulipa* va *Allium* senopopulyatsiyalarida qari tuplarning uchramasligi, aksariyat tuplarning generativ bosqichdayoq nobud bo‘lib ketishi bilan izohlanadi.

O‘ng tomonlama tip spektri juda ham past ko‘rsatkichga ega. O‘ng

tomonlama spektrga xos bo‘lgan senopopulyatsiya (*Punica granatum*) Tupalang havzasi hududidagi Ispan qishlog‘i yo‘li yoqasidan ajratilib, ushbu senopopulyatsiyada qari generativ tuplarning ulushi 36,4% ni tashkil qiladi. Bu senopopulyatsiya yirik shag‘alli toshlarda o‘sib, xududda kuchli antropogen ta’sirlar (tuplarning chopilishi, hosildorlikning muntazam emasligi, urug‘dan ko‘payishning doimiy emasligi va boshqalar) kuzatildi. Bu holat o‘simliklarning ekstremal sharoitlarga nisbatan javob reaksiyasidir. Xususan, qari generativ o‘simliklarda hayotiy jarayonlar sekinlashadi, yosh o‘simliklarda esa aksincha, tezlashadi. Bu esa salbiy ekologik sharoitlar ta’siridan qochishga yordam beradi va populyatsiyani saqlab qolishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Biomodal tip spektrida yuqori cho‘qqi virginil va qari generativ (*Cicer grande, V. vinifera*) tuplar ulushiga to‘g‘ri keladi (SP 39, 42). Odatda bunday spektrlar urug‘ bilan ko‘payish barqaror tarzda kechayotgan senopopulyatsiyalarda shakllanadi. Bir tomondan, o‘tgan yillarda unib chiqqan nihollar muvaffaqiyatli tarzda keyingi rivojlanish bosqichlariga o‘tishi natijasida, senopopulyatsiyada virginil tuplar to‘planishiga olib keladi. Ikkinchi tomondan esa, qulay sharoitlarda generativ bosqichning uzayishi shu yoshdagi o‘simliklar sonining ortishiga zamin yaratdi. O‘tgan yillardagi ommaviy o‘sish natijasida paydo bo‘lgan nihollarning keyingi bosqichlarga muvaffaqiyatli o‘tishi bir tomondan virginil tuplarning to‘planishiga, ikkinchi tomondan esa, qulay sharoitlarda generativ bosqichning uzayishi shu yoshdagi tuplar sonining ko‘payishiga sabab bo‘ldi.


Senopopulyatsiyalarning *T. greigii* (SP 1, 2, 4, 5, 6, 8, 9), *T. kaufmanniana* (SP 10, 12, 13, 14, 15, 17) va *A.oschaninii* (SP 30, 31, 32, 33, 34, 35, 37) yashovchanligi (Δ-delta) va samaradorligi (Ω-omega) shuni ko‘rsatadiki, aksariyat senopopulyatsiyalar yosh holatda ekanligi kuzatildi. Yetilgan, yetilayotgan va o‘tuvchi tipdagi senopopulyatsiyalar, umumiy ko‘rsatkichlarning 37,25 % ni tashkil qiladi. O‘rganilgan senopopulyatsiyalar orasida 1 tadan qariyotgan (*V. vinifera*) va qari (*P. granatum*) senopopulyatsiyalar (SP 45, 48) qayd etildi.

Qariyotgan tipdagi senopopulyatsiya (*V. vinifera*) Boysun hududidagi Urta Machay atrofidagi qoyalar orasida joylashgan bo‘lib, bu joy o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishi uchun biroz noqulay hisoblanadi. Bu yerda qari generativ bosqichdagi individlarning uchrashi ularning tog‘ qoyalarida saqlanib qolganligi bilan izohlanadi. Qari tipga xos bo‘lgan senopopulyatsiyada (*P. granatum*), chorvaning tartibsiz boqilishi, yo‘l qurilishi va mahalliy aholi o‘simlik qalamchalaridan keng ravishda foydalanilish holatlari kuzatilgan. Natijada, urug‘ orqali ko‘payish kamayib, qari tuplar yig‘ilishi ortgan.

Dissertatsiyaning oltinchi bobi **“Madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarini xo‘jalik ahamiyatiga ega turlari resurslarini baholash”** deb nomlanadi. Ushbu bo‘limda madaniy o‘simliklarning “ajdodlari” tushunchasini kengroq talqin qilgan holda nafaqat madaniy o‘simliklarga evolyutsion-genetik jihatdan yaqin bo‘lgan, balki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muhim va talab yuqori bo‘lgan boshqa potentsial foydali turlar ham o‘rganildi. Qayd etilgan barcha o‘simlik turlari ularning xo‘jalik ahamiyatiga ko‘ra shartli ravishda 3 guruhga ajratildi: Yem-xashak o‘simliklari (*Poa bulbosa, Hordeum bulbosum*), ozuqabop o‘simliklar (*Berberis integerrima, Crataegus turkestanica, Pistacia vera, Rosa canina, Malus domestica*) va dorivor turlar

(*Cichorium intybus, Glycyrrhiza glabra, Urtica dioica*). Ushbu turlar yillik kvotaga tarkibiga kiritilgan bo‘lib (Xojimatov, 2019), yaylov chorvachiligida ham yuqori talabga ega.

Turlarning resurs potensialini yaxshiroq vizualizatsiya qilish maqsadida PS-K-Means usuli yordamida klaster tahlili amalga oshirildi. Resurs potensiali ko‘rsatkichlari asosida turlar 3 ta asosiy guruhga ajratildi. Birinchi guruhga foydalanish qiymati indeksi (UV = 152,0) eng yuqori bo‘lgan *Glycyrrhiza glabra* kiritildi. Monitoring maydonlarida zahira qiymatiga ega bo‘lgan maydoni (F) 222,2 ga, biologik xomashyo zaxiralari (BR) 767,5 tonna, ekspluatatsion zaxira (ER) 575,6 tonna, yillik yig‘im hajmi (AV) 143,9 tonna, talab hajmi (U) 2280,7 tonna, iste’molchilar soni (N) esa 15 tani tashkil etadi. Ikkinchi guruhga yem-xashak turlari kiritildi. Ular uchun foydalanish qiymati indeksi (UV) 112,1 ni tashkil etadi va hosildorlik 2500,0 dan 4000,0 kg/ga gacha o‘zgarib turadi. Uchinchi guruhga esa dorivor va oziq-ovqat ahamiyatiga ega bo‘lgan, resurs potensiali ko‘rsatkichlari eng past bo‘lgan turlar kiritildi. Ular qatoriga *Urtica dioica* (AV = 6,7), *Cichorium intybus* (AV = 1,08) va *Malus domestica* (AV = 15,7) kiradi. Ushbu guruhda eng yuqori ko‘rsatkichlar *Rosa canina* turida qayd etildi: AV = 40,1 va UV = 18,7 (3-rasm).




A B

3 – rasm. O‘zbekiston florasidagi MO‘YoA resurs potensiali: A – RS-K-Means Cluster analiz; B – resurs tavsifi

Daraxt va butalarning hosildorlik ko‘rsatkichlari, ularning dengiz sathidan balandligi ortib borishi bilan pasayib boradi (r=0,22). Bu holat aksincha, yem-xashak xususiyatiga ega bo‘lgan o‘simliklarda (*Poa bulbosa, Hordeum bulbosum*) teskari bo‘ladi (r=0,58). Bu esa ularning dengiz sathi balandligiga ijobiy bog‘liqlik korrelyatsiyasini ko‘rsatadi. Dorivor o‘simliklarda esa (*Cichorium intybus, Glycyrrhiza glabra, Urtica dioica*) ushbu holat o‘rtacha korrelyatsiyada ekanligi qayd etildi (r=0,33). Bu holat turlarning orografik o‘zgarishlarga o‘rtacha sezgirligini namoyon qiladi (4-rasm).

Nam joylarda, ya'ni tog' soylarining etaklarida, mezofil o'simlik turlarini ekishni tavsiya qilamiz. Bunday o'simliklarga quyidagilar kiradi: *Urtica dioica* L.**,**

Persicaria hydropiper (L.) Delarbre, *Plantago major* L., *Tussilago farfara* L.**,** *Hippophae rhamnoides* L.



4 – rasm. O‘zbekiston florasidagi MO‘YA dispersion tahlili
R– hosildorlik; N - dengiz sathidan balandligi; AV – yillik yig‘ish hajmi

Dissertatsiyaning yettinchi bobi **“Turlarning tirik kolleksiyasini yaratish va iqtisodiy jihatdan qimmatli turlarni muhofaza qilish choralari”** deb nomlanadi. Ushbu bobda MO‘YA ning muhim turlarining tirik kolleksiyasini yaratish hamda tadqiqot ob’ektlarining ma’lumotlar bazasi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Turlarni ekologik xususiyatlariga ko‘ra tahlil qilish asosida, yuqori qiymatli Madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlari vakillarining tirik kolleksiyasi Toshkent botanika bog‘i (TBB) va Qizilqum cho‘l stansiyasida (QCHS) tashkil qilingan. Kolleksiyalarni yaratishda tabiiy populyatsiyalardan yig‘ilgan urug‘lik materiallaridan foydalanilgan. Bundan tashqari, *Allium* va *Tulipa* turkumi turlarining piyozlari ham keltirilgan.

Sinov natijalari shuni ko‘rsatadiki, TBB sharoitida urug‘larning unish darajasi nisbatan yuqori bo‘lib, 80–94% ni tashkil qilsa, QCHS maydonida bu ko‘rsatkich 60–75%ni tashkil etadi. Yuqori ekologik plastiklikka ega va turli ekologik sharoitlarda muvaffaqiyatli madaniylashtirilgan 7 turning urug‘i (*Aegilops* turkumi turlari, *Amygdalus bucharica, Juglans regia, Cichorium intybus, Medicago sativa, Daucus carota, Lactuca serriola*) TBB va QCHS maydoniga ekildi. Ularning unish darajasi mos ravishda 65–81% va 52–68%ni tashkil etadi.

TBB sharoitida eng yuqori yashab qolish darajasi quyidagi turlarda kuzatildi: *Rosa canina, Elwendia persica, Hordeum spontaneum, Allium oschaninii, Allium pskemense, Juglans regia, Elaeagnus angustifolia, Crataegus pontica, Crataegus turkestanica*. Vegetatsiyaning uchinchi yilida bu turlarning yosh nihollari 66–70% gacha saqlanib qoldi. Nisbatan past saqlanish darajasi quyidagi 3 turda qayd etildi: *Amygdalus bucharica, Pistacia vera, Hippophae rhamnoides* (20–25%).

Har ikkala kolleksiyada ekilgan namunalarining yashovchanligida ozgina farqlar bo‘lishi kuzatildi. Jumladan, asosan yengil tuproqlarda o‘sadigan kseromezofit fitotsenozlarda uchraydigan *Prunus spinosissima, Ferula karelinii, Rheum tataricum, Avena fatua, Anabasis salsa, Bassia prostrata, Caroxylon dendroides* va boshqa turlar QCHS sharoitida nisbatan yuqori yashovchanlikni ko‘rsatdi. Shu bilan birga, areallari ko‘proq nam hududlarni qamrab olgan turlar TBB sharoitida yaxshi saqlanib qolishi qayd etildi.

O‘rganilgan turlar orasida eng past saqlanish ko‘rsatkichi *Allium praemixtum* (38 %) turida kuzatildi. Bu, ehtimol, uning ekologik moslashuvchanligining o‘ziga xosligi bilan izohlanadi. Ushbu turning tabiiy populyatsiyalari baland o‘tli yarim-savannalarda, yirik toshli yonbag‘irlar va tog‘ tizmalari qoyali xududlarida uchraydi. Bu esa uning botanika kolleksiyalari sharoitiga muvaffaqiyatli moslashuvini qiyinlashtiradi.

So‘nggi bo‘limda, madaniy o‘simliklar yovvoyi ajdodlarining (MO‘YA) axborot-analitik ma’lumotlarni saqlash va taqdim etishga mo‘ljallangan floraning ma’lumotlar bazasining tavsifi keltirilgan. Ma’lumotlar bazasi quyidagi asosiy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi: geografik koordinatalar, turlarning tarqalish areali xaritalari, ularning xo‘jalik ahamiyati haqidagi ma’lumotlar, fotosuratlar, muhofaza holati va boshqa ko‘rsatkichlar. Ushbu ma’lumotlar O‘zbekiston hududida o‘suvchi madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlaridan barqaror foydalanish va muhofaza qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSALAR

“O‘zbekiston florasidagi madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlari: tarqalishi, populyatsiyalari holati, tabiiy resurslari” mavzusidagi fan doktori (DSc) dissertatsiyasi yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. O‘zbekistonning tabiiy florasida madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlarini inventarizatsiya qilish natijasida ularning 29 oila, 119 turkumga mansub 224 turi aniqlandi. Madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlari (MO‘YA) floristik spektrida Poaceae, Fabaceae, Amaranthaceae, Rosaceae va Amaryllidaceae oilalari yetakchi o‘rin egallaydi. *Poa, Allium, Vicia, Rumex, Lathyrus, Aegilops, Hordeum* va *Prunus* turkumi vakillari yuqori xilma-xilligiga ega bo‘lib, umumiy o‘rganilgan flora umumiy turlarining 62,94 foizini tashkil etadi.

2. MO’YA kompleks tahlili ular orasida gemikriptofit va terofitlar (64%) ustunlik qilishini ko’rsatdi, bu esa ularning yuqori ekologik plastiklikka ega ekanini va O’zbekiston florasida ustunlik qilishini hamda mos biomorfologik guruhlardan madaniy o’simliklarni tanlab olish uchun shakllangan evolyutsion asos mavjudligini ko’rsatadi. Xo’jalik ahamiyati belgilari bo’yicha turlarning aksariyat ulushi yem-xashak (64,28%), dorivor (38,83%) va oziq-ovqat (35,26%) ahamiyatiga ega bo’lib, bu ularning farmokologik va oziq-ovqat xavfsizlikni ta’minlashda salmoqli salohiyatini ta’kidlaydi. MO’YA kamyob turlarini IUCN mezonlari bo’yicha baholash natijasida 8 tur - zaif turlar (VU), 6 tur - yo’qolib

borayotgan turlar (EN), 1 tur *Ribes malvifolium* Pojark. esa – jiddiy xavf ostidagi turlar (CR) qatoriga kiradi.

3. MO'YA o'simlik qoplamining tiplari bo'yicha taqsimlanishi tahlili natijasida ular 13 florotsenotip tarkibida uchrashi aniqlandi. Madaniy o'simliklarning yovvoyi ajdodlariga boy hududlar shiblyaklar, Eron-Turon yarim savannalari va efemeretumlari bo'lib, ularning tarkibida bir nomdagi formatsiyalarni hosil qiluvchi bir qator edifikatorlar aniqlangan (Pistacietum verae, Crataeguetum korolkovii, Maletum domesticae, Juglandetum regiae). Efemeretumlar tarkibida (*Carex pachystylis, Poa bulbosa*) esa kserofit siyrak o'rmonlar va yirik boshoqli yarim savannalardan hosil bo'lgan jamoalar hamda bir yillik boshoqli o'simliklar (*Aegilops triuncialis, Hordeum leporinum* va boshqalar) aniqlangan bo'lib, bu kelajakda antropofitonning ustun bo'lishidan dalolat beradi.

4. Tur boyligi indeksi (*DMg*) va entropiya ko'rsatkichlarining (*H*) tizimli pasayishi, shu bilan birga dominantlik indeksining (*D*) ortib borishi MO'YA sintaksonlari ichida fitotsenotik tuzilmaning progressiv soddalashib borayotgani hamda raqobatbardosh dinamikalarning susayishini ko'rsatadi. Bunday o'zgarishlar jamoalarning barqaror faoliyat ko'rsatish mexanizmlarining buzilayotganini hamda stressga moslashgan, yuqori ekologik amplitudaga ega, ammo yetilgan fitotsenozlarga past integratsiyalashuvi, ko'pincha ruderal elementlar tomon siljishlarni aks ettiradi.

5. Zamonaviy jamoalarda qayd etilgan β-xilma-xillik ko'rsatkichlarining pasayishi (β_W) va bir paytda guruh ichidagi o'zgaruvchanlikning (σ) ortib borishi ekologik nishalar spektrining torayishi va yashash muhitlarining fazoviy fragmentatsiyasini aks ettiradi. Bu siljish sintaksonlar o'rtasidagi turlar tarkibining baravarlashuvi bilan birga kechib, bu esa fitotsenozlarning mahalliy o'ziga xosligining yo'qolishini va gomegenizatsiya jarayonlarining kuchayishini ko'rsatadi. Eng yuqori umumiy turlar boyligi MO'YA ning regional bioxilma-xilligi yadrosini shakllantiruvchi daraxtli fitotsenozlarda saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, butazor jamoalar formatsiyalar soni bo'yicha kichik qamrovga egaligiga qaramay, ular differentsial turlar ulushining yuqorligi bilan xarakterlanadi, bu esa ularning yaqqol ekotopik ixtisoslashuvi va fitosinuzialligi yuqori ekanligidan dalolat beradi.

6. O'zbekistonning geografik hududlari bo'yicha Madaniy o'simliklar yovvoyi ajdodlarining taqsimlanishi tahlili shuni ko'rsatadiki, xilma-xilligi yuqori bo'lgan "qaynoq nuqtalar" sifatida G'arbiy Hisor (150 tur), G'arbiy Tyon-Shon (135 tur), Nurota (120 tur) va Sharqiy Chink (59 tur) hududlari aniqlangan. Ushbu qaynoq nuqtalarda MO'YA uchun umumqabul qilingan tasnifi bo'yicha birinchi toifadagi — ya'ni mahalliy va madaniy o'simliklarga yaqin bo'lgan, global ahamiyatga ega turlar ustunlik qilishi, O'rta Osiyoning madaniy o'simliklarning kelib chiqish markazlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Ushbu guruh o'simliklar mintaqaga xos turli stress omillariga chidamli yangi navlar yaratishda qimmatli gen manbai hisoblanadi.

7. Fitosenozlarni belgilangan kamyoblik mezonlari asosida tahlil qilish natijasida muhofazaga muhtoj bo'lgan 11 ta o'simlik jamoalari aniqlangan. Ularni ajratishda eng muhim mezonlar sifatida floristik tarkibning noyobligi, tabiiylik

darajasi va fitotsenozlarning fazoviy tarqalish xususiyatlari inobatga olindi. Bunda ekotopik (EP), areologik (AP), dinamik (DP) va filotsenogenetik (FP) xususiyatlar inobatga olindi. Ular orasida eng zaiflari – gil-karbonot jinslardan tashkil topgan substratlarda, o'ziga xos mikroiqlimiy sharoitlartda (EP) arealning shimoliy va janubi-g'arbiy chekkalarida (AP) o'suvchi Oqchingilli qumuzumzor va na'matakzor kabi stenobiont kamyob jamoalar bo'lib, ularda Ustyurt Chinkiga xos bo'lgan uchinchi davr relikti *Malocacarpus crithmifolius* (FP) ustunlik qiladi. Mintaqadagi ekologik sharoitlarning ya'ni Orol dengizining qurib borishi bilan bog'liq hozirgi o'zgarishlari ushbu noyob fitotsenozlarning butunlay yo'qolib ketish xavfini sezilarli darajada oshirmoqda.

8. *Tulipa greigii*, *Tulipa kaufmanniana*, *Allium pskemense* va *Allium oschaninii* turlarining yuqori vitalitet va barqaror holatga ega bo‘lgan senopopulyatsiyalari, o'zida yuqori ekologik barqarorlik va reproduktiv moslashuvchanlikni namoyon etadi. Ularning o‘z-o‘zini saqlab qolish qobiliyati generativ va vegetativ ko‘payish strategiyasining uyg‘unlashuvi orqali amalga oshadi. Bunday ikki tomonlama ko‘payish xususiyati muhit sharoitlarining o‘zgarishida populyatsiyaning omon qolish ehtimolini oshiradi hamda ontogenetik strukturaning normal yoki invazion-barqaror tipiga mos keladi.

9. *Punica granatum*, *Ficus carica*, *Cicer grande* va *Vitis vinifera* populyatsiyalari generativ tuplar ulushi nisbatan yuqori bo‘lishiga (35–40 %) qaramay, regressiv dinamikani namoyon etmoqda. Bu ontogenetik spektrning buzilganidan dalolat beradi, ya'ni yuvenil, virginil va generativ tuplar o‘rtasidagi nisbat qarish bosqichi tomon yoki moslashuvchan bo‘lmagan komponentlar tomon siljigan. Bunday populyatsiyalar depressiv (25,49 %) sifatida tasniflanadi, bu esa reproduktiv potensiali va demografik barqarorlikning pasayishi, shuningdek, tabiiy yo‘l bilan o‘z-o‘zini tiklash qobiliyatining yo‘qolganligini bildiradi.

10. O‘zbekiston florasining MO'YA 10 ta turlari bo'yicha turli landshaft-ekologik sharoitlarda o‘tkazilgan resurs tavsifi natijalariga ko‘ra, eng yuqori foydalanish qiymati indeksi dorivor o‘simliklar guruhiga to'g'ri kelishi aniqlandi (r=0,58). Yem-xashak va oziq-ovqat o‘simliklari esa o‘rtacha foydalanish qiymati indeksiga ega (r=0,33). Mahsuldorlik ko‘rsatkichlari va resurs salohiyati yer yuzasi balandligiga bevosita bog‘liq (r=0,22), bu ayniqsa O‘zbekiston florasi MO'YoA tarkibiga kiruvchi daraxt-buta turdagi o‘simliklar uchun yaqqol namoyon bo‘ladi.

11. Qizilqum cho‘l stansiyasi va Toshkent botanika bog‘ida *ex situ* sharoitida madaniy o‘simliklarning yovvoyi ajdodlarining tabiiy populyatsiyalari genofond kolleksiyasi yaratilgan bo‘lib, u ilmiy tadqiqotlar va o‘rganilayotgan flora genofondini saqlash uchun muhim manba hisoblanadi. Turlarning kolleksiyada yashovchanligi ularning ekologik-senotik moslashuvchanligi bilan belgilanadi. Turlarni saqlash va ularning barqaror foydalanilishini ta'minlash bo‘yicha tadbirlarni axborot bilan qo‘llab-quvvatlovchi ma'lumotlar bazasi ishlab chiqilgan.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.B.39.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ БОТАНИКИ
ИНСТИТУТ БОТАНИКИ

АБДУРАИМОВ ОЗОДБЕК СУЛТАНКУЛОВИЧ

ДИКИЕ СОРОДИЧИ КУЛЬТУРНЫХ РАСТЕНИЙ ВО ФЛОРЕ УЗБЕКИСТАНА: РАСПРОСТРАНЕНИЕ, СОСТОЯНИЕ ПОПУЛЯЦИЙ, ПРИРОДНЫЕ РЕСУРСЫ

03.00.03 – Ботаника

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАТЦИИ ДОКТОРА НАУК (DSc)
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора наук (DSc) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2023.4.DSc/B207.

Диссертация выполнена в Институте ботаники.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице (www.botany.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:	**Шомуродов Хабибулло Файзуллоевич** доктор биологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Тургинов Орзимат Турдиматович** доктор биологических наук
	Мырзагалиева Анар Базаровна доктор биологических наук, профессор
	Усупбаев Адилет Кыдыкбекович доктор биологических наук
Ведущая организация:	**Национальной педагогический университет Узбекистана имени Низами**

Защита диссертации состоится 31 октября 2025 года в 14^{00} часов на заседании Научного совета DSc 02/30.12.2019.B.39.01 при Институте ботаники АН РУз (адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Актовый зал Института ботаники АН РУз. Тел.: (+99871) 262-37-95, факс (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ботаники АН РУз (зарегистрировано за №79). Адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Тел.: (+99871) 262-37-95.

Автореферат диссертации разослан 15 октября 2025 года.
(реестр Протокола рассылки №18 от 15 октября 2025 года).

К.Ш. Тожибаев
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, д.б.н., академик

А.В. Махмудов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, PhD, старший научный сотрудник

Ф.И. Каримов
Заместитель Председателя Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Эффективное использование генетических ресурсов планеты в настоящее время рассматривается как один из ключевых факторов устойчивого развития жизнеспособного сельского хозяйства как в развитых, так и в большинстве развивающихся стран мира. В документах Продовольственной и сельскохозяйственной организации ООН (FAO) подчеркивается, что «из всех природных богатств наиболее важными для всех народов и поколений являются генетические ресурсы растений». На сегодняшний день общее количество культурных растений оценивается примерно в 3000 видов семенных растений, что составляет около 1 % от общего числа видов в мировой флоре (Камелин, 2005).

В мире уделяется большое внимание целенаправленному использованию диких сородичей растений, обеспечению стабильности природных популяций и разработке мер их охраны. Согласно О.Н. Коровину (1986), Средняя Азия является одним из центров происхождения культурных растений. По его оперелению, под диким сородичем культурных растений (ДСКР) понимаются «виды природной флоры, эволюционно и генетически близкие культурным растениям и используемые человеком в селекции с целью их выращивания, интродукции и создания новых сортов». Особое внимание в селекционных исследованиях уделяется источникам растений с высокой адаптивной способностью и устойчивостью к различным стрессам. В связи с этим, разработка новых стратегий для обеспечения сохранности природных популяций и охраны их в соответствии с важнейшими будущими экологическими проблемами приобретает особое значение.

В связи с растущей потребностью человечества в продуктах питания на глобальном уровне и воздействием изменения климата, необходимо создавать высокоурожайные сорта культурных растений, устойчивые к засухе, засолению почвы и новым вредителям. Важно в этой связи использовать материалы из природной флоры, а точнее — диких сородичей возделываемых культур, для создания новых сортов. В этом контексте особое научное значение приобретает оценка состояния популяций диких сородичей, изучение особенностей трансформации фитоценозов и определение ресурсного потенциала. Для разработки оптимальных мер охраны популяций угрожаемых видов необходимо исследовать фитоценотическую приуроченность отдельных видов, анализировать их онтогенетические структуры и типы ценопопуляций, а также выявлять экологические оптимумы на основе оценки организменных и популяционных признаков, включая индикаторы тревожного состояния на основе виталитетного состояния ценопопуляций.

В настоящее время в нашей республике, на фоне изменения климата, особое внимание уделяется сохранению и устойчивому использованию растительных ресурсов. В рамках программных мероприятий, реализуемых в аправлении, достигнуты определенные результаты, включая оценку

состояния и сохранения природных популяций диких сородичей культурных растений, распространенных в Узбекистане. В стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан поставлена задача «устранение проблем, влияющих на окружающую среду и генофонд»[1]. В этом контексте большое научное и практическое значение имеют исследования, направленные на выявление современного состояния диких сородичей культурных растений, анализ факторов, способствующих их кризисному состоянию, сохранение природных популяций и создание семенных генбанков и коллекций в условиях *ex situ*.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных законом Республики Узбекистан №409 “Об охране и рациональном использовании растительного мира” от 21 сентября 2016 года, а также постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан № 484 «Об утверждении стратегии сохранения биологического разнообразия в Республике Узбекистан на период 2019-2028 годов» от 11 июня 2019 года, в 20-пункте 9-главы данного же постановления в целях восстановления воспроизводства культурных растений было отмечено обеспечить сохранение генофонда их диких сородичей и создать банков семян различных популяций диких сородичей культурных растений.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики Узбекистан V. «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации[2]. Научные исследования, направленные на изучение распространения, экономического значения, генетических ресурсов, широкого использования в селекции, современного состояния популяций, редких видов, инвертаризация и охрана диких сородичей культурных растений (ДСКР) осуществляются в ведущих научных центрах и высших учебных заведениях мира, в том числе: Alliance Bioversity & CIAT (Италия), Centre for Genetic Resources, The Netherlands (CGN), North American botanical garden (США), University of British Columbia (Канада), University of Birmingham (Великобритания), Nature Conservation Sector of Egypt (Египт), Дальневосточное отделение Института биологии и почвоведения (Россия), Институт ботаники и фитоинтродукции (Казахстан).

В результате проведенных в мире исследований по распространению диких сородичей культурных растений получен ряд научных результатов, в том числе: определено разнообразие важных питательных и хозяйственнозначимых растений, оценены изменения под влиянием экологических факторов и разработаны карты распространения (Alliance Bioversity&CIAT, Италия), разработана стратегия сохранения и меры охраны

[1] Указ Президента Республики Узбекистан УП-4947 «О Стратегии действий по развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 года.

[2] Обзор научных исследований по теме диссертации осуществлен на основе следующих источников: www.works.doklad.ru, www.km.ru, www.dissercat.com, www.istina.msu.ru, researchgate.net, www.fundamental-research.ru, www.webofscience.com и др.

культурных растений (North American botanical garden, США); Centre for Genetic Resources, The Netherlands (CGN), разработана стратегия сохранения диких сородичей (Nature Conservation Sector of Egypt), осуществлено эффективное использование диких сородичей культурных растений и проведена их инвентаризация (University of British Columbia, Vancouver, Canada), широко использованы в селекционных работах и максимально увеличен потенциал продуктивности (School of Biosciences, University of Birmingham, Birmingham, United Kingdom), оценены редкие растительные сообщества, распространенные на Дальнем Востоке России, по 13 критериям и разработаны меры по их охране (Дальневосточное отделение Института биология-почвоведения, Россия); проведен экологический мониторинг диких сородичей культурных растений, распространенных на территории Казахстана (хребет Тянь-Шан), и составлены их современные карты распространения (Институт ботаники и фитоинтродукции, Казахстан).

Степень изученности проблемы. На глобальном уровне природный ареал распространения и биологическое разнообразие диких сородичей культурных растений изучены зарубежными учеными M. Akhalkatsi et al. (2018), R. Redden et al. (2015), экономическое и хозяйственное значение раскрыли C.W. Whitney et al. (2018), H. Dempewolf et al. (2017), по систематике диких сородичей культурных растений работали Ch. Akhter et al. (2016), по генетическим ресурсам и геномике проводили научные исследования M.L. Teso et al. (2018), K.J. Vining et al. (2020), а также меры их охраны изучены учеными M. Akhalkatsi (2009), N. Maxted et al. (2020, 2024).

Первичные исследования СНГ, направленные на эту тему, проводили П.М. Жуковский (1971), Д.Д. Брежнев и О.Н. Коровин (1981), а также О.Н. Коровин (1986). В научных трудах Д.Д. Брежнева и О.Н. Коровина (1981) приведены данные о диких сородичах около 600 культурных растений, распространенных в странах СНГ. Вопросы природных ареалов распространения видов исследовались учеными С.Р. Мифтаховой, Л.М. Абрамовой (2014), Ситпаевым и др. (2014), Иманбаевой и др. (2016), а также Есимбековым и др. (2015). Вопросы сохранения и меры охраны раскрыты Т.Н. Смекаловой и И.Г. Чухиной (2011), а современные методы выявлены в работах С.Р. Мифтаховой (2015).

В нашей республике распространение и разнообразие диких сородичей культурных растений исследовали Хасанов и др. (2011), генетические ресурсы изучены Е.А .Бутковым (2011), Г.М. Черновой и др. (2011). В последние годы А.А. Ажиев/A.A. Ajiev (2022, 2023) также провел исследования диких сородичей культурных растений, распространенных в Каракалпакстане и Хорезме. Несмотря на вышеизложенные исследования, в Узбекистане не осуществлялись комплексный анализ ДСКР, не проводились целенаправленные исследования, касающихся распространению, динамике растительных сообществ диких сородичей культурных растений, оценке состояния природных популяций, их ресурсный потенциал и мер охраны.

В связи с этим большое практическое значение имеет исследование фитоценозов и природных популяций диких сородичей культурных

растений, распространённых в нашей флоре. Важным аспектом является выявление уязвимых видов и оценки их популяций, редких растительных сообществ с доминированием ДСКР и природных ресурсов, что позволяет не только глубже понять динамику растительности, но и эффективно использовать их для сельского хозяйства и других нужд. Важно провести оценку существующих угроз для этих популяций и разработать комплекс мер по их охране, включая создание охраняемых природных территорий, программы восстановления экосистем и сохранения редких видов, а также мониторинг изменений в их ареалах в связи с изменениями климата и антропогенной деятельностью.

Связь темы диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ научно-исследовательского учреждения, где выполнена диссертация. Данное исследование выполнено в рамках планов научно-исследовательских работ прикладных и фундаментальных проектов Института ботаники «Кадастр высших растений Навоийской и Бухарской областей» (2018-2020), «Оценка состояния популяций редких и исчезающих видов растений пустынь Узбекистана и создание их живой коллекции» в сотрудничестве Узбекистан-Китай (2017-2018), а также в рамках государственной программы «Оценка современного состояния популяций и создание живых коллекций диких сородичей культурных растений, имеющих особое хозяйственное значение во флоре Узбекистана» (2021-2024).

Целью исследования является оценка современного состояния популяций и разработка мер охраны диких сородичей культурных растений, распространенных в Узбекистане.

Задачи исследования:

комплексный анализ диких сородичей культурных растений Узбекистана (таксономический состав, жизненные формы, хозяйственно-экономическое значение, редкие виды, распределение ДСКР по флороценотипам, изменение структуры синтаксонов, горячие точки);

выявление редких растительных сообществ диких сородичей культурных растений;

оценка состояния популяций редких видов ДСКР в Узбекистане на основе выявления онтогенетической структуры, виталитетного состояния и возрастных типов ценопопуляций;

оценка природных ресурсов экономически и хозяйственно ценных видов;

создание живой коллекции ДСКР в условиях Ташкентского ботанического сада и Кызылкумской пустынной биологической станции;

создание базы данных диких сородичей культурных растений, распространенных во флоре Узбекистана (ДСКР-UZ).

Объектами исследования являются диких сородичей культурных растений, распространенных на территории Узбекистана**.**

Предметом исследования являются структура, флористический состав, экология, ценопопуляции и ресурсы диких сородичей культурных растений.

Методы исследований. В диссертации использованы полевые,

геоботанические, фитоценотические, популяционные, ресурсные и статистические методы.

Научная новизна исследования заключается в следующем:

впервые проведена инвентаризация диких сородичей культурных растений (ДСКР) флоры Узбекистана, состоящих из 224 видов, принадлежащих к 119 родам и 28 семействам;

впервые осуществлен комплексный анализ ДСКР, как составной части исследуемой флоры;

выявлена фитоценотическая приуроченность ДСКР флоры Узбекистана;

определены изменения структуры синтаксонов с доминированием ДСКР на основе бетта *(β)* и гамма *(ɤ)* индексов биоразнообразия;

выявлены горячие точки (*hotspot*) распространения ДСКР в разрезе ботанико-географических районов на основе оценки видового богатства, эндемизма, классификации по степени использовании, уровней угроз и разнообразия среды обитания;

впервые выявлено 11 редких растительных сообществ ДСКР на основе флористической, фитоценотической значимости и антропогенной трансформации территорий.

оценено современное состояние популяций 9 редких видов ДСКР на основе анализа онтогенетической структуры и виталитетных показателей 51 ценопопуляции;

впервые проведен корреляционный анализ между биометрическими показателями ресурсозначимых видов и влияющими на них абиотическими факторами.

Практические результаты исследования заключаются в следующем:

составлены ГИС карты, отражающие распространение и виталитетное состояние 51 ценопопуляции 9 редких видов ДСКР. Предоставлены новые сведения в очередное издание «Красной книги Республики Узбекистан» о распространении, структуре, экологии и причинах сокращения ареала популяций 9 редких и нуждающихся в охране видов ДСКР;

определены природные ресурсы и нормы годового использования имеющих высокое экономическое и хозяйственное значение видов ДСКР: кормовых (*Poa bulbosa*, *Hordeum bulbosum*), лекарственных (*Cichorium intybus*, *Inula grandis*, *Inula helenium*) и пищевых (*Pictacea vera, Rosa canina, Berberis oblonga*, *Crataegus chlorocarpa*, *Malus domestica*);

создана живая коллекция диких сородичей некоторых культурных растений в Ташкентском ботаническом саду и на Кызылкумской пустынной станции;

собранные полевые материалы способствовали обогащению фонда Национального гербария Узбекистана (TASH);

Достоверность результатов исследования обосновывается соответствием результатов, полученных на основе применения современных методов и научных подходов с теоретическими данными, публикацией результатов в ведущих научных изданиях (Scopus и Web of Science), выявленными закономерностями и полученными заключениями, а также

подтверждением полученных практических результатов уполномоченными государственными структурами и внедрением их в практику.

Научная и практическая значимость результатов исследования. Научная значимость результатов исследований заключается в масштабном анализе диких сородичей культурных растений Узбекистана, выявлении изменений в структуре фитоценозов, антропогенного воздействия, изучении структуры и типов виталитета ценопопуляций редких и находящихся на грани исчезновения видов флоры, а также в углубленном анализе горячих точек распространения и раскрытии стадий роста и развития видов на коллекционном участке.

